



## O'rmon va o'tloq

bugun tashqarida




Keng o'tloqda arilar,  
Kapalaklar uchadi.  
Guldan yozilgan gilam  
Bahri dilni ochadi.



- O'tloqda qanday o'simliklar o'sadi?
- O'tloqda qanday jonivorlar yashaydi?



**Hasharotlar** 6 ta (3 juft) oyog'i bor jonivorlardir.



O'ylab ko'ring, nima uchun asalarilar qora va sariq,  
chigirtkalar esa yashil rangda bo'ladi?

O'rmon – bu sirli olam,  
Daraxtlar o'sar ko'rkam.  
Qush navosi, sof havo,  
Beradi tanga davo.



O'tloq o'rmondan qanday farq qiladi? O'rmonda qanday hayvonlar yashaydi?







O'rmonda va o'tloqda o'zni tutish qoidalariga qarang. Yana qanday o'zni tutish qoidalarini bilasiz? O'z belgizingni chizing.



**gulxan  
yoqmang**



**gullarni  
yulmang**



**daraxt shoxlarini  
sindirmang**



**kapalaklarni  
tutmang**



**gullarni bosib,  
payhon qilmang**



Bolalar o'rmonda va o'tloqda o'zni tutishning qanday qoidalarini buzishdi?






**Hayvonlar** usti jun bilan qoplangan jonivorlardir.



Rasmlarga qarang. Ularda tasvirlangan hayvonlar haqida bilganlaringizni ayting.



Buxoro bug'usi



mushuk



quyon



ayiq



tuya

